

**XIZMATLARNI KO'RSATISH \ QURILMANI
TA'MIRLASH BO'YICHA ISHLARNI BAJARISH TO'G'RIDA
OMMAVIY OFERTA.**

2024-y. 01-avgust

Toshkent sh.

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur hujjat STIR 307901162 bo'lgan, matnda keyingi o'rinlarda "Ijrochi" deb ataluvchi va kompaniyaning Ustavi asosida faoliyat yurituvchi direktori Ko A.N. tomonidan taqdim etilgan hamda ushbu oferta shartlarida qurilmalarni diagnostika qilish, ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish/ishlarni bajarish (matnda keyingi o'rinlarda – Xizmatlar) yuzasidan shartnoma (matnda keyingi o'rinlarda – Shartnoma) tuzish niyatini bildiruvchi "GREEN ENERGY SOLUTION" MCHJ (matnda keyingi o'rinlarda – Servis-markaz) ning rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanadi.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining (matnda keyingi o'rinlarda – FK) 369-moddasi 2-bandiga muvofiq, quyidagi shartlar qabul qilingan, to'lov amalga oshirilgan va qurilmalar ta'mirlash uchun Servis-markaziga topshirilgan taqdirda, ushbu ofertaning akseptini amalga oshiruvchi, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxs yoki Yakka tartibdagi tadbirkor yoxud tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs "Buyurtmachi"ga aylanadi (O'zR FKning 370-moddasi 3-bandiga muvofiq oferta aksepti ofertada bayon etilgan shartlarda shartnoma tuzishga teng kuchga ega sanaladi), Ijrochi va Buyurtmachi birgalikda esa – Oferta shartnomasining "Tomonlari" hisoblanadi.

1.3. Ushbu Ommaviy Oferta Shartnomasida bayon etilgan shartlarning aksepti bo'lib, Toshkent shahridagi Servis-markaziga qurilmalarni yetkazib berishni qoplaydigan Transport xarajatlarini yoki qurilmalarning ta'miri va sarflash materiallari uchun to'lovni Ijrochiga oldindan 100 foiz to'lash hisoblanadi. Ijrochining Buyurtmachi tomonidan o'tkazilgan pul mablag'larini olganligi fakti mazkur shartnomaning so'zsiz qabul qilinganligi hisoblanadi, Buyurtmachi esa Ijrochi bilan shartnomaviy munosabatlarga kirgan shaxs sifatida qaraladi.

1.4. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda ushbu ommaviy oferta matnini diqqat bilan o'qib chiqing. Agar siz uning shartlariga yoki shartlarning biror bandiga rozi bo'lmasangiz, Ijrochi Sizga Oferta-shartnomani tuzishdan va Ijrochi xizmatlaridan foydalanishdan voz kechishni taklif qiladi.

1.5. Agar Buyurtmachi qurilmaning asosiy egasi bo'lmasa, u to'lovni amalga oshirishdan oldin qurilma egasiga o'z niyatlari to'g'risida xabar berishi shart.

1.6. Buyurtmachi ushbu shartnomani qabul qilar ekan, shartnomani ixtiyoriy ravishda tuzayotganini tasdiqlaydi, bunda shartnomaning barcha shartlari, unga tushunarli bo'lgan va qo'shimcha tushuntirishlarni talab qilmaydigan xizmatlar ro'yxati va narxlar preyskuranti bilan to'liq tanishib chiqqanligini tasdiqlaydi.

2. ASOSIY TUSHUNCHALAR

2.1. Mazkur Oferta maqsadlarida quyida keltirilgan atamalar quyidagi ma'noda qo'llaniladi:

Oferta – Internet tarmog'idagi www.smartpos.uz va/yoki www.smart-ecosystem.uz manzillarida e'lon qilingan, Ijrochi tomonidan xizmatlar ko'rsatish shartlarini belgilovchi "Xizmatlar ko'rsatish\qurilmalarni ta'mirlash bo'yicha ishlarni bajarish yuzasidan ommaviy oferta" nomli mazkur hujjat.

Oferta Aksepti (qabul qilinishi) – ushbu Ofertada ko'rsatilgan xatti-harakatlarni amalga oshirish yo'li bilan Ofertaning to'liq va so'zsiz qabul qilinishi. Oferta Aksepti Shartnomani yaratadi.

Buyurtmachi – belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan, Oferta Akseptini amalga oshirgan va shu tariqa, tuzilgan Shartnoma bo'yicha Ijrochi xizmatlarining Buyurtmachisi bo'lgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkor yoki tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs.

Diagnostika – qurilmaning texnik holatini aniqlash.

Ta'mirlash – qurilmalarning sozligini yoki ishlash qobiliyatini tiklash, qurilmalar yoki ularning tarkibiy qismlarining resurslarini tiklash bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar majmui.

3. SHARTNOMA MAVZUSI

3.1. Ijrochi aniqlangan nosozlikka qarab Buyurtmachiga o'z kuchi bilan va o'z qurilmalari, ehtiyot qismlari, sarflash materiallaridan foydalangan holda qurilmalarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish majburiyatini zimmasiga oladi, Buyurtmachi esa qurilmani topshirish, uni qabul qilish va Ijrochi xizmatlari uchun haq to'lash majburiyatini zimmasiga oladi.

3.2. Ijrochi Buyurtmachidan qurilmalarni ta'mirlash yuzasidan olingan talabnoma asosida sabablarini tushuntirmasdan schyot taqdim etmaslik huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.3. Xizmatlar Ijrochi tomonidan uning texnik markazida (matnda keyingi o'rinlarda – Servis-markazi) amalga oshiriladi.

4. OFERTANI AKSEPT QILISH VA SHARTNOMA TUZISH

4.1. Buyurtmachi Buyurtmachining qurilmalarini Toshkent shahridagi Servis-markaziga yetkazib berishni qoplaydigan transport xarajatlarini Ijrochiga to'lash va/yoki qurilmalarni ta'mirlash va/yoki ehtiyot qismlar va/yoki sarflanadigan materiallarni Ijrochiga 100% oldindan to'lash yo'li bilan Oferta Akseptini amalga oshiradi. Transport xarajatlari qiymatini to'lash yoki ta'mirlash qiymatini oldindan to'lash Buyurtmachining qurilmani ta'mirlash to'g'risidagi shartnomaning ushbu shartlariga to'liq roziligini bildiradi.

4.2. Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnoma shartlarini bilmaslik uning shartlariga rioya etishdan bosh tortishga sabab bo'lishi mumkin emas.

5. XIZMAT KO'RSATISH NARXI, SHARTLARI VA TARTIBI

5.1. Mazkur shartnoma bo'yicha xizmatlar qiymati hisob taqdim etilgan paytda amalda bo'lgan Ijrochining Preyskuranti asosida belgilanadi. Ko'rsatiladigan xizmatlar uchun preyskurant ushbu shartnomaga 1-Ilovada aks ettirilgan va mazkur ilova uning ajralmas qismi hisoblanadi.

5.2. To'lov pul mablag'larini Ijrochining hisob raqamiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan Ijrochining hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushgan sana to'lov sanasi hisoblanadi.

5.3. Qurilmaning ishida buzilishlar, nosozliklar aniqlangan taqdirda, Buyurtmachi qurilmani Hamkor – "Center for digital technology and innovation" AJ (matnda keyingi o'rinlarda – Hamkor) ning xizmat ko'rsatish punktiga taqdim etadi. Qurilmani diagnostika qilish va keyinchalik ta'mirlash bo'yicha murojaat qilingan kunda Ijrochi Buyurtmachiga qurilmani Ijrochining Toshkent shahridagi Servis markaziga yetkazib berishni qoplaydigan transport xarajatlarini to'lash uchun to'lov schyotini taqdim etadi.

5.4. Transport xarajatlari to'lovi Buyurtmachi tomonidan 1 (bir) ish kuni mobaynida amalga oshirilishi lozim. Buyurtmachi tomonidan transport xarajatlari to'langandan so'ng, qurilma Ijrochining Toshkent shahridagi Servis-markaziga yuboriladi. Agar Buyurtmachi tomonidan hisob taqdim etilgan paytdan boshlab 1 (bir) ish kuni mobaynida transport xarajatlari uchun to'lov 100 foiz oldindan to'lov shaklida amalga oshirilmasa, qurilma Ijrochining Servis-markaziga yuborilmaydi.

5.5. Diagnostika natijalari bo'yicha Ijrochi Buyurtmachiga ta'mirlash qiymati va zarur hollarda ehtiyot qismlar, sarflash materiallari uchun to'lovni amalga oshirish bo'yicha hisobni taqdim etadi, u Buyurtmachi tomonidan 2 (ikki) ish kuni mobaynida to'lanishi kerak. Buyurtmachidan Ijrochining hisob raqamiga pul mablag'lari kelib tushganidan so'ng, Ijrochi qurilmani ta'mirlashga kirishadi. Agar 2 (ikki) ish kuni mobaynida Buyurtmachi tomonidan ta'mirlash qiymati va sarflash materiallari uchun to'lov 100 foiz oldindan to'lov shaklida amalga oshirilmasa, Ijrochi qurilmani ta'mirlamasdan, uni Hamkorning xizmat ko'rsatish punktiga qaytaradi, bunda Buyurtmachi tomonidan qurilmaning avval bajarilgan diagnostikasini o'tkazish maqsadida Ijrochining Servis-markaziga yetkazib berish uchun to'lagan transport xarajatlari to'lovi qaytarilmaydi.

5.6. Qurilma Buyurtmachining roziligi bilan qismlarga ajratmasdan va ichki shikastlanishlarni tekshirmasdan qabul qilinadi. Buyurtmachi texnik xizmat ko'rsatishda uskunada aniqlanishi mumkin bo'lgan barcha nosozliklar va shikastlanishlar ta'mirga qabul qilingunga qadar yuzaga kelgan deb qaralishiga rozilik bildiradi.

5.7. Buyurtmachi tomonidan ekspluatatsiya qilish shartlari qo'pol ravishda buzilgan, qurilmada korroziya izlari bo'lgan, unga namlik tushishi yoki mexanik ta'sirlar ko'rsatilgan taqdirda, Buyurtmachi qurilmani ta'mirlash jarayonida uning ishlash qobiliyati to'liq yoki qisman yo'qotilishi xavfini o'z zimmasiga oladi.

5.8. Mustaqil ravishda ta'mirlashga urinish izlari, qurilmada plomba yo'qligi, uni ochish yoki boshqa servis markazida ta'mirlash o'tkazilganligini ko'rsatuvchi belgilar aniqlanganda, Ijrochi Buyurtmachini ogohlantirmasdan ta'mirlash ishlarini bajarishdan bosh tortish yoki ularning qiymatini oshirish huquqini o'zida saqlab qoladi.

5.9. Qurilmani ta'mirlash bo'yicha xizmatlar ko'rsatish qiymatiga ehtiyot qismlar, sarflash materiallari qiymatlari kirmaydi – ularning qiymati har bir ta'mirlash ishlari bo'yicha alohida hisoblanadi.

5.10. Qurilmani ta'mirlash muddatlari qurilmaning turiga, foydalanish muddati va shartlariga bog'liq, lekin oldindan 100% to'lov amalga oshirilgan paytdan boshlab 15 (o'n besh) ish kunidan oshmasligi lozim.

5.11. Quyidagi hollarda qurilmani ta'mirlash uchun kafolat taqdim etilmaydi:

- a) Buyurtmachi tomonidan ta'mirlash ishlarini to'liq hajmda amalga oshirish rad etilganda;
- b) qurilma korpusining, bosma platalarning mexanik shikastlanishi, osma elementlarning siljishi, mikrosxemalarning yoki uning tarkibiga kiruvchi har qanday bo'g'in va bloklarning yoriqlari, shuningdek, issiqlik yordamida ta'sir ko'rsatilganligi aniqlanganda, shu jumladan yuqoridagilar ta'mirlash ishlarini o'tkazish jarayonida aniqlanganda;
- d) malakaga ega bo'lmagan aralashuv izlari aniqlangan taqdirda;
- e) qurilmada suyuqlik, hasharotlarning hayot faoliyati mahsulotlari, havoning yuqori namligi yoki uning ichidagi begona predmetlarning ta'siri tufayli yuzaga kelgan korroziya izlarining mavjudligi;
- ye) Buyurtmachi tomonidan ushbu qurilmadan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma buzilganda;
- f) plombalar shikastlangan yoki mavjud bo'lmaganda;

g) boshqa hollarda;

5.12. Ta'mirlash ishlari bajarilib, xizmatlar uchun haq to'langandan so'ng Buyurtmachiga ko'rsatilgan xizmatlar/bajarilgan ishlar dalolatnomasi beriladi, u muayyan qurilma bo'yicha xizmatlar/ishlarning topshirish-qabul qilinishini bildiradi.

5.13. Ijrochi qabul qilingan qarorning sababini tushuntirmasdan Buyurtmachiga ta'mirlashni bir tomonlama rad etish huquqini o'zida saqlab qoladi.

6. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

6.1. Ijrochi quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

6.1.1. Ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Buyurtmachiga xizmatlar ko'rsatish;

6.1.2. Buyurtmachi tomonidan shartnomada belgilangan to'lov majburiyatlari bajarilgach, diagnostika qilish bo'yicha xizmatlar ko'rsatilgandan va/yoki ta'mirlash ishlari bajarilgandan so'ng, qurilmalarni Buyurtmachiga topshirish.

6.2. Ijrochi quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

6.2.1. ushbu shartnoma va unga ilovalarning shartlarini bir tomonlama tartibda o'zgartirish (to'ldirish), narxlar preyskurantini Hamkorning saytida va/yoki xizmat ko'rsatish punktlarida yangilangan tahririni joylashtirish yo'li bilan o'zgartirish.

6.2.2. Buyurtmachidan ushbu Shartnomaga muvofiq Ijrochi tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar va/yoki bajarilgan ishlar uchun o'z vaqtida va to'liq haq to'lanishini talab qilish.

6.2.3. agar Ijrochida Buyurtmachi shartnoma shartlarini, uchinchi shaxslarning huquqlarini va/yoki ushbu shartnomada nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni buzayotgani to'g'risida xulosa chiqarish uchun yetarli asoslar bo'lsa, Buyurtmachiga xizmatlar ko'rsatishni rad etish va shartnomani bekor qilish.

6.2.4. agar asbob-uskunalar boshqa shaxslar va/yoki tashqi tashkilotlar tomonidan noto'g'ri ishlatilgan, ochilgan va/yoki ta'mirlangan bo'lsa, Buyurtmachiga qurilmalarni ta'mirlash ishlarini bajarishni rad etish.

6.3. Buyurtmachi quyidagi majburiyatlarga ega bo'ladi:

6.3.1. xizmatlarni lozim darajada ko'rsatish uchun Ijrochiga barcha zarur axborotni taqdim etish.

6.3.2. ushbu shartnomada nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda transport xarajatlarini, Ijrochi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar haqini to'lash bo'yicha majburiyatlarni bajarish.

6.3.3. qurilmalarni olgandan so'ng, ko'rsatilgan xizmatlar/bajarilgan ishlar dalolatnomasini imzolash, bu ma'lum bir qurilmalar bo'yicha xizmatlarni/ishlarni topshirish-qabul qilishni anglatadi.

6.2.4. ushbu shartnoma doirasida o'z zimmasiga olgan boshqa majburiyatlarni bajarish.

6.4. Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega bo'ladi:

6.4.1. Ijrochidan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning o'z muddatida va lozim darajada sifatli bajarilishini talab qilish.

7. BOSHQA SHARTLAR

7.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javob beradilar.

7.2. Uchinchi shaxslar bilan barcha o'zaro munosabatlarda Tomonlar o'z nomlaridan va o'z mablag'lari hisobidan harakat qiladilar.

7.3. Ijrochi Oferta shartlariga, preyskurantga, Ilovaga o'zgartirishlar kiritish yoki Ofertani o'z xohishiga ko'ra istalgan vaqtda qaytarib olish huquqini o'zida saqlab qoladi. Ijrochi tomonidan Ofertaga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda, agar Ijrochining o'zi tomonidan boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday o'zgarishlar e'lon qilingan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

7.4. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday majburiyatlarni bajarmaslik shartnoma tuzilgandan keyin yuzaga kelgan yengib bo'lmay kuch holatlari oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa yoki agar Tomonlar shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilmaganligi Tomonlar oldindan ko'ra olmagan yoki oqilona choralar bilan oldini ololmagan favqulodda hodisalar oqibatida kelib chiqqan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar.

7.5. Shartnomadan kelib chiqishi mumkin bo'lgan har qanday nizo yoki kelishmovchiliklar Tomonlar tomonidan muzokaralar o'tkazish va yozma da'vo yuborish yo'li bilan hal etiladi. Da'vo tartibi majburiy hisoblanadi. E'tirozning mohiyati bo'yicha javob da'vo xati olingan paytdan boshlab, 10 (o'n) kalendar kun ichida Tomon tomonidan yuborilishi kerak.

7.6. Nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, ular belgilangan tartibga rioya qilgan holda Toshkent tumanlararo xo'jalik sudida ko'rib chiqiladi.

7.7. Shartnoma u tuzilgan (Oferta Aksepti) paytdan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

7.8. Ushbu shartnoma Tomonlarning yozma kelishuviga binoan istalgan vaqtda, shuningdek, shartnomani bekor qilish mo'ljallanayotgan sanadan kamida 30 kalendar kun oldin boshqa Tomonga tegishli bildirishnoma yuborish yo'li orqali bir tomonlama tartibda bekor qilinishi mumkin.

7.9. Shartnomaning amal qilishini har qanday asosga ko'ra to'xtatish Tomonlarni uning amal qilish muddati davomida yuzaga kelgan shartnoma shartlarining buzilishi uchun kelib chiqqan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

7.10. Tomonlar elektron aloqa vositalari yordamida rasmiylashtirilgan hujjatlar vakolatli shaxslarning o'z qo'li bilan imzolangan va muhr izi bilan tasdiqlangan bosma shakldagi hujjatlar bilan teng yuridik kuchga ega ekanligini tan oladilar. Tomonlar ushbu shartnomani bajarayotgan shaxslarda zarur vakolatlarning (shu jumladan hujjatlarni imzolash uchun) mavjudligini kafolatlaydilar.

7.11. Ushbu Shartnomaning Tomonlaridan birida mulk shakli, nomi, rekvizitlari, rahbarining o'zgarishi va shu kabilar o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan Tomon ushbu Tomonning vakolatli shaxsi tomonidan imzolangan va uning muhri bilan tasdiqlangan xabarnomani yuborish orqali boshqa Tomonni o'zgarishlar to'g'risida darhol xabardor qilishi shart. Mazkur majburiyat Tomonlardan biri tomonidan bajarilmagan taqdirda, boshqa Tomon bunday bajarmaslik oqibatida kelib chiqqan oqibatlar uchun javobgar bo'lmaydi.

7.13. Oferta shartlariga xilof bo'lmagan tarzda Buyurtmachi va Ijrochi istalgan vaqtda xizmatlarni ko'rsatish yuzasidan shartnomani yozma, ikki tomonlama hujjat shaklida rasmiylashtirishga haqlidirlar.

7.14. Buyurtmachi ushbu shartnoma bo'yicha o'z huquqlarini Ijrochining oldindan yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga topshirishga yoki boshqacha tarzda berib yuborishga haqli emas.

IJROCHINING REKVIZITLARI

“GREEN ENERGY SOLUTION” MChJ

Manzil: Toshkent shahri, Bektemir tumani

Oltintopgan ko'chasi, 29-uy

STIR: 307 901 162

h/r: 2020 8000 6053 0706 3001

“TENGE BANK” ATB

FAA: 01176

IFUT: 58290

Direktor: Ko A.N.

**Xizmatlar ko'rsatish\qurilmalarni
ta'mirlash bo'yicha ishlarni bajarish
yuzasidan Ommaviy Ofertaga
1-ilova.**

XIZMATLAR RO'YXATI, NARXLAR PREYSKURANTI.

№	Xizmat nomi	Onlayn NKM rusumi, QQS bilan, so'm	
		UZKASSA N5, UZKASSA P100	A-Pay P10
1	Onlayn nazorat-kassa mashinasi ishining texnik holatini diagnostika qilish	Bepul	Bepul

2	Qurilma foydalanuvchi tomonidan ruxsatsiz ochilgandan keyin qurilmaning ishlashini (xavfsizlik sertifikatini) tiklash	250 000,0	250 000,0
4	Termobosmaning kallagini almashtirgan holda ta'mirlash	455 998,0	215 000,0
5	Displeyni almashtirgan holda ta'mirlash	1 255 846,0	675 000,0
6	Akkumulyatorni almashtirgan holda ta'mirlash	266 616,0	190 000,0
7	Korpusni almashtirgan holda ta'mirlash	246 514,0	-
8	Termoqog'oz lotogining qopqog'ini almashtirgan holda ta'mirlash	68 852,8	39 200,0
9	Akkumulyator bo'linmasi qopqog'ini almashtirgan holda ta'mirlash	76 176,0	-
10	Refurbished – zavod sozlamalariga qaytarish (tizim platasini almashtirmasdan)	2 095 000,0	-
11	Tizim platasini almashtirgan holda ta'mirlash	1 846 210,0	-
12	Quvvatlash tugmalarini almashtirgan holda ta'mirlash, balandlikni sozlash	104 913,1	-
13	Old kamerani almashtirgan holda ta'mirlash	275 080,0	-
14	Dinamikni almashtirgan holda ta'mirlash	99 580,8	-
15	Asosiy kamerani almashtirgan holda ta'mirlash	417 910,0	197 000,0
16	SIM SLOTni almashtirgan holda ta'mirlash	181 383,5	45 000,0
17	LDO konnektorini almashtirgan holda ta'mirlash	134 535,3	-
18	Elektr taqsimlash pereklyuchatelini almashtirgan holda ta'mirlash	276 984,4	155 000,00
19	USB mikro ulagichni almashtirgan holda ta'mirlash	162 720,4	89 000,0
20	N5-ME SHFPC-V-2.0 konnektorini almashtirgan holda ta'mirlash	181 764,4	-
21	Silikon bosim zichlagichlari 1 (Silica gel) ni almashtirgan holda ta'mirlash	-	45 000,0
22	NFC antennani almashtirgan holda ta'mirlash	-	58 000,0
23	Diagnostika qilish va ta'mirlash uchun qurilmalarni yetkazib berish bo'yicha transport xarajatlari	50 000,0	50 000,0
24	Printer rolikini almashtirib ta'mirlash	68 700,0	-
25	Printer lotoki qopqog'ini almashtirib ta'mirlash	68 700,0	-
26	Printer lotokini almashtirib ta'mirlash	68 700,0	-

“GREEN ENERGY SOLUTION” MCHJ

Direktor: Ko A.N.